



Academicia Globe: Inderscience Research

PSYCHOLOGICAL BASES OF FORMATION OF PSYCHOLOGICAL CULTURE IN CHILDREN OF PRESCHOOL AGE

Rahimova Sevara Mutalibovna
Director of DMTT No. 46, Fergana city

Karaboeva Maqsuda Mahmudjon qizi
Fergana city 46 DMTT stylist
karaboevam@gmail.com

Anatomy:

The article describes the formation of psychological culture in preschool children and its peculiarities, the stages of development in ontogenetic psychology of adolescence. It is emphasized that the preschool age plays an important role in the formation of a person as a person and the formation of culture in these young people.

Keywords: youth, ontogeny, mental development, preschool age, childhood, culture, institution, education, upbringing, family, attitude.

Hozirgi kunda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga katta etibor qaratilmoqda sababi inson vatan va oila tushunchasini avvalo maktabgacha ta'lim tashkilotlarida anglab yetishadi. Shu bilan birgalikda shaxs ilk marotaba o'zining menini xam bog'cha yoshida anglaydi va o'zini taniy boshlaydi. Endi maktabgacha yosh davriga psixologik xususiyatlarga to'xtalib o'tamiz.

Ontogenezda 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri yoki maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan holda 3 davrga: (3—4 yosh) kichik maktabgacha davr, (kichik bog'cha yoshi), (4—5 yosh) o'rta maktabgacha davr, (o'rta bog'cha yoshi), (6—7 yosh) katta maktabgacha davr (katta bog'cha yoshi)ga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodni tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarining o'sib borishi, katta yoshli kishilarining bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilishga qaratilishi lozim.

Bog'cha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xu-susiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzuksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi. Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola axloq



me'yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bola endi o'z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati mu- vofiqlashtirilgan holda boladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojiana boshlaydi, u yangiliklarni egallahsga nisbatan o'z bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi, o'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Bolalarda o'qish va mehnat faoliyati elementlarining rivojlanishi. O'qish faoliyatining yangi bilimlarni o'zlashtirish kabi maxsus maqsadi mavjud. O'qish ko'nikmasi o'quv vazifalarini amaliy hayotiy vaziyatlardan ajratish va uni qabul qilishni nazarda tutadi. Maktabgacha yosh davrida o'qishning motivatsion asoslarini — bilishga qiziqish (qiziquvchanlikni) rivojlanadir muhim hisoblanadi. Didaktik o'yinlar bilish, o'quv faoliyatini shakllantiradigan o'yinning maxsus shaklidir. Mehnat va o'quv topshiriqlari tufayli bajarilgan mahsuldor faoliyat turlarida maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi: natijaga erishish, xulq-atvorni boshqarish va rejalashtirish, o'z-o'zini baholash, yangi mo-tivlar, mehnatsevarlik kabilarni shakllantiradi.

Shu bilan birgalikda bolalar madaniyatining asosiy qismi kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti xaqida xam to'xtalib o'tamiz. Maktabgacha yosh davridagi bolalarning kattalar bilan muloqoti ularda nutqning rivojlanishi hisobiga chuqurlashadi. M.I.Lisina maktabgacha yoshdagi bolani kattalar bilan muloqotining vaziyatdan tashqari xarakterini ta'kidlab, uning 2 shaklini ko'rsatgan Bola 3—4 yoshga to'lganida hamkorlik o'rniغا muloqotning bilish shakli shakllanadi. Vaziyatdan tashqari bilish muloqoti shakllanadi. Muloqotning bu shaklida yetakchi motiv — bilishdir. Bunda kattalar bilan hamkorlik qilib tevarak-atrof bilan tanishadi, kattalar bilan «nazariy hamkorlik» jarayoni amalga oshadi. Bola hayvonlar, narsalar, planetalar, nimadan yasalganligi haqida juda ko'p «Nima uchun?» degan savollar beradi. Kattalar bola tomonidan bilim manbayi sifatida idrok qilinadi, savollariga va o'ziga jiddiy munosabatda bo'lismeni, hurmatni talab qiladi. Bu ehtiyojning muhimligi shundaki, bu yoshdagi bolalarga xos bo'lgan tez xafa bo'luvchanlikda namoyon bo'ladi. Bola 6—7 yoshga to'lganda muloqotning oliy shakli — vaziyatdan tashqari shaxsiy muloqotga o'tiladi. Bunda bola kattalarga oila haqida, qayerda ishlashi, nima ish qilishi haqida savollar bera boshlaydi. Endi kattalar bola uchun ijtimoiy bilish manbayi sifatida namoyon bo'ladi. Bolaning kattalar bilan muloqoti hamdardlik, o'zaro bir-birini tushunish, qarashlarning umumiyligiga intilish kabilar bilan chuqurlashadi. Uch yoshda bolada tengdoshlari bilan muloqotda emotsiyalar, ifodali qarashlardan foydalanadi. 3—4 yoshli bola uchun tengdoshi birgalikdagi amaliy faoliyatning ishtirokchisiga ayla- nadi, uning individual xarakterologik xislatlarini sherigi payqamaydi. 4 yoshda tengdoshi muloqot sherigiga aylanadi. 4—5 yoshda sherigini o'zi bilan teng mayjudot sifatida ko'rib o'zini u bilan taqqoslaysidi. 5—7 yoshga kelib tengdoshi bolaning ko'z o'ngida individuallikka aylanadi, u bola uchun muhim suhbatsoshga aylanadi, muloqotning ko'pchilik ko'rsatkichlari bo'yicha kattalardan o'zib ketadi. Bola o'zini va tengdoshini bir butun shaxs sifatida idrok qiladi, unga shaxsiy munosabat bildiradi.

Shuningdek, bog'cha yoshidagi bolalarda ma'naviy hissiyotlardan o'rtoqlik, do'stlik va jamoachilik hislari ham yuzaga kela boshlaydi. Bolaning bog'cha yoshidagi davrida estetik hissiyotlari ham ancha tez o'sadi. Bog'cha yoshidagi bolalarda estetik hislarning namoyon bolishini, ayniqsa, ularning chiroyli, yangi kiyim-bosh kiyganlarida juda yaqqol ko'rish mumkin.



Bu yosh davrida o‘yin bilan bog’liq bo’lmagan faoliyatni amalga oshirish tendensiyasi shakllanadi. Bu tendensiya zamonaviy tarixiy sharoitda ijtimoiy muhim va baholanadigan faoliyatni bajarish, o‘quvchi bo’lish, o‘qish istagida namoyon bo’ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. M.Rasulova Maktabgacha yoshdagi bolalar talim-tarbiyasiga qo`yiladigan davlat talablari Toshkent 2000 yil
2. Umumiyl psixologiya (F.Xaydarov, N.Xalilova)-2010
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar – Qarshi.: Nasaf, 2000 y.
4. Rivojlanish psixologiyasi pedagogic psixologiya (Nishonova.Z Kamilova.G’) T. 2018
5. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya (Nishonova.Z Qarshiyeva.D) T.